

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14004888>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GAP MAVZUSINING O‘QITILISH USLUBIYATI

Mamadiyeva Bahora

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

2-kurs talabasi

M.A.Hamrayev

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich fakulteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga gap mavzularida gap haqida asosiy tushunchalar berilishi, uning to‘g‘ri va aniq tuzilishi, nimalardan iborat bo‘lishi bilan bog‘liq masalalar. Sinflar kesimida o‘qitilish texnologiyalari.

Kalit so‘zlar: Gap tuzilishi, sinflar kesimi, uslubiyat, aniqlik.

АННОТАЦИЯ

Вопросы, связанные с предоставлением учащимся начальных классов основных представлений о предложении, его правильной и четкой структуре, из чего оно состоит. Технологии обучения в классах.

Ключевые слова: Структура предложения, разрез классов, методология, точность.

ANNOTATION

Issues related to providing primary school students with the basic understanding of the sentence, its correct and clear structure, what it consists of. Education in classrooms.

Keywords: *Sentence structure, section of classes, methodology, accuracy.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gap mavzusini to'liq va to'g'ri o'rgatish, ularni hayotda to'g'ri nutqqa ega bo'lishlariga xizmat qiladi, ya'ni gaplarni grammatik jihatdan tartibli gapira oladilar va og'zaki nutq takomillashuvishga erishadilar.

Barcha mantiqiy va grammatik tushunchalar o'quvchilarga boshlang'ich sinf paytida ekanligidayoq berila boshlanadi, zero, yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir!

Gaplarni to'g'ri va puxta grammatik qurilishini namoyon qilish, buni o'rganish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili nazariyasi bo'yicha to'rt yil mobaynida o'rganishlari kerak bo'lgan fanning eng muhim qaymog'i hisoblanadi. Shu mavzu bo'yicha boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar va ona tili fani oldidagi vazifasi, gap haqidagi eng asosiy tushunchalarini, kategoriyalarini, uning aniq, grammatik qoidalariga mos ravishda tuza olishni o'rgatishdan iborat. Va bu vazifa birinchi sinfdan to to'rtinchi sinfga qadar gap o'rgatish bosqichlarini qamrab oladi. Gap mavzusi sintaksis bo'limida o'rganiladi.

Xususan, 1-sinfda sintaksis bo'limiga oid birgina "Gap" mavzusi beriladi va ushbu mavzuni o'rganish uchun rejaga 8 sinf soati ajratiladi. Mazkurda quyidagi qoidalar beriladi:

Gap so'zlardan tuziladi;

Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi;

Xabar mazmunidagi gapning oxiriga nuqta (.) qo'yiladi;

So'roq mazmunidagi gapning oxiriga so'roq belgisi (?);

His-hayajon mazmunidagi gapning oxiriga undov (!) belgisi qo'yiladi.

2-sinf Ona tili darsligida esa sintaksis bo'limiga oid 3ta mavzu beriladi, ular:

Gap;

Gapning asosi;

Gapda soʻzlarning bogʻlanishi.

Yuqoridagi mavzularni oʻrganish uchun esa 10 soat ajratiladi.

Darslikda, shuningdek, quyidagi qoidalar keltirib oʻtiladi:

Gap tugallangan fikrni bildiradi. Gap soʻzlardan tuziladi. Gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan soʻz bilan ular haqida nima deyilganini bildirgan soʻz gapning asosiy mazmunini bildiradi. Bu — gapning asosi boʻladi. Soʻzlar mazmun jihatidan oʻzaro bogʻlanib, gap hosil qiladi.

3-sinf ona tili darsligida ham quyidagi tushuncha keltirib oʻtilgan: Nutq — gaplar orqali bildirilgan fikrdir. Nutq gaplardan, gap esa soʻzlardan tuziladi.

4-sinfda Gap haqida deyarli yangi fikrlar bildirilmagan, gap qatnashgan matnlar berilgan. Gaplarni qanday ohangda oʻqilishi, qoʻyiladigan tinish belgilari haqidagi shartlar asosida berilgan mashqlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich sinf oʻquvchilari gap mavzusini oʻzlashlashtirishda soʻzlarning bogʻlanishi puxta egallagan boʻlsalar bas, gap tushunchasini takomil oʻrgatish oʻqituvchining mukammal ilm-u texnologiyasiga bogʻliq!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Gʻafforova T. va boshqalar. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. –T. 2018.
2. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. – T. 2018
3. S.Fuzailov , M. Xudoyberganova, Sh. Yoʻldosheva. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, 14- nashri Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi